

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



**O'ZBEKISTON FAUNASI**

**O'quv dasturi**

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika  
Ta'lif sohasi: 510 000 – Biologik va turdosh fanlar  
Ta'lif yo'nalishi: 60510100 – Biologiya (turlari bo'yicha)

Fan/modul kodi O'FNB304	O 'quv yili 2024-2025	Semestr 5	Kreditlar 4			
Fan/modul turi Tanlov fan	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 2			
1	Fanning nomi <b>O'zbekiston faunasi</b>	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat) 60			
		60	Jami yuklama (soat) 120			
2	<b>I. Fanning mazmuni</b>					
<p>“O'zbekiston faunasi” fanini o'qitishdan maqsad, talabalarga O'zbekiston hayvonot dunyosi, ularning turlar tarkibi, turli bioekologik xususiyatlari, noyob turlarni himoya qilishni chuqur o'rganish va O'zbekiston hayvonot dunyosi haqida hozirgi zamon ta'lilotini berishdan iborat.</p> <p>Fanning asosiy vazifasi talabalarga O'zbekiston hayvonot dunyosi xilma-xilligi, tarqalish xususiyatlari, sistematikasi, ularning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati kabi masalalar bo'yicha ma'lumotlar beradi. Noyob turlarni muhofaza qilish muammolariga alohida ahamiyat beradi. Kursni o'qitish davomida O'zbekiston zoologiya fani milliy yutuqlaridan keng ko'lamda foydalilaniladi va zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatishdan iborat.</p>						
<p><b>II. Asosiy nazariv qism (m a'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>1-mavzu. O'zbekiston faunasi faniga kirish</b></p> <p>O'zbekiston faunasi fanining maqsad va vazifalari, o'rganish usullari. O'zbekiston hayvonot dunyosi to'g'risida umumiy ma'lumot. O'zbekiston hayvonot dunyosini o'rganishga hissa qo'shgan olimlar. O'zbekiston zoologiyasi milliy yutuqlari.</p> <p><b>2-mavzu. O'zbekiston hududida yashovchi hayvonlarga sistematik tafsif</b></p> <p>Respublika faunasi to'g'risida umumiy ma'lumot. Sut emizuvchilar faunasi. Qushlar faunasi. Sudralib yuruvchilar faunasi. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar faunasi. Baliqlar faunasi. Umurtqasiz hayvonlar faunasi. Umurtqali hayvonlar turlari qiyosiy baholanishi. O'zbekiston umurtqali hayvonlarining endemiklik darajasi.</p>						

### **3-mavzu. Zoologik sistematika prinsiplari. Sistematikada qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar**

O'zbekiston hududida yashovchi hayvonlarga sistematik tavsif. Zoologik sistematika prinsiplari. Nomenklatura. Tasnif. Identifikatsiya. Hayvonlar ilmiy "pasporti". Sistematikada qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar.

### **4-mavzu. O'zbekiston hududida hayvonlarning tarqalish xususiyatlari**

*Tekislik* (qumli cho'llar, soz tuproqli cho'llar) hayvonlari, *tog'lar* (chala cho'lli tog' mintaqasi, tog' dashtlari mintaqasi, tog' o'rmonlari mintaqasi, Alp mintaqasi) hayvonlari, *suv havzalari* hayvonlari, *voha* hayvonlari.

### **5-mavzu. O'zbekistonda umurtqasiz hayvonlar xilma-xilligi**

O'zbekistonda umurtqasiz hayvonlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari.

### **6-mavzu. Noyob umurtqasiz hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari**

Noyob umurtqasiz hayvonlar to'g'risida ma'lumot. O'zbekiston hududida uchrovchi noyob umurtqasiz hayvonlar. Noyob umurtqasiz hayvonlarni muhofaza qilish masalalari

### **7-mavzu. O'zbekistonda baliqlar xilma-xilligi**

O'zbekistonda baliqlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari.

### **8-mavzu. Noyob baliqlar va ularni muhofaza qilish masalalari**

Dunyo va O'zbekiston ixtiofaunasi to'grisida qisqacha ma'lumot. Noyob baliqlar to'g'risida umumiyligi ma'lumot. O'zbekiston hududida uchrovchi noyob baliq turlari (sistematikasi, ro'yxati, qisqacha ma'lumot). Noyob baliqlarni muhofaza qilish masalalari. Ixtiofauna xilma-xilligini saqlashning qonuniy asoslari.

### **9-mavzu. O'zbekistonda sudralib yuruvchi hayvonlar xilma-xilligi**

Dunyo va O'zbekiston gerpetofaunasi to'grisida qisqacha ma'lumot. O'zbekistonda sudralib yuruvchi hayvonlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari.

### **10-mavzu. Noyob sudralib yuruvchi hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari**

Noyob sudralib yuruvchi hayvonlar to'g'risida umumiyligi ma'lumot.

O'zbekiston hududida uchrovchi noyob sudralib yuruvchi hayvonlar turlari (sistematikasi, ro'yxati, qisqacha ma'lumot). Noyob sudralib yuruvchi hayvonlarni muhofaza qilish masalalari. Gerpetofauna xilma-xilligini saqlashning qonuniy asoslari.

### **11-mavzu. O'zbekistonda qushlar xilma-xilligi**

Dunyo va O'zbekiston ornitofaunasi to'grisida qisqacha ma'lumot. O'zbekistonda qushlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari.

### **12-mavzu. Noyob qushlar va ularni muhofaza qilish masalalari**

Noyob qushlar to'g'risida umumiyligi ma'lumot. O'zbekiston hududida uchrovchi noyob qush turlari (sistematikasi, ro'yxati, qisqacha ma'lumot). Noyob qushlarni muhofaza qilish masalalari. Ornitofauna xilma-xilligini saqlashning qonuniy asoslari.

### **13-mavzu. O'zbekistonda sut emizuvchi hayvonlar xilma-xilligi**

Dunyo va O'zbekiston teriofaunasi to'grisida qisqacha ma'lumot. O'zbekistonda sut emizuvchi hayvonlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari.

### **14-mavzu. Noyob sut emizuvchi hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari**

Noyob sut emizuvchi hayvonlar to'g'risida umumiyligi ma'lumot. O'zbekiston hududida uchrovchi noyob sut emizuvchi hayvonlar turlari (sistematikasi, ro'yxati, qisqacha ma'lumot). Noyob sut emizuvchi hayvonlarni muhofaza qilish masalalari. Teriofauna xilma-xilligini saqlashning qonuniy asoslari.

### **15-mavzu. O'zbekiston hayvonot dunyosi xilma- xilligini saqlash**

O'zbekistonda hayvonlarni saqlash bo'yicha qonun hujjatlari. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish" to'g'risidagi, "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunlar, Oliy Majlisning "Qimmatbaho va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishni kuchaytirish hamda ulardan foydalanishni tartibga solish" to'g'risidagi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Yovvoyi hayvonlar va o'simliklarni muhofaza qilishni kuchaytirish va ulardan foydalanishni tartibga solish" to'g'risidagi qarorlari. Boshqa qonun va qarorlar haqida. "Qizil kitob" va uning hayvonot dunyosi xilma-xilligini saqlashdagi ahamiyati.

### **III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

((Laboratoriya ishlari), (Seminar mashg'ulotlari), (Amaliy mashg'ulotlar), (Kurs ishi), (Mustaqil ta'lim) o'quv rejada ko'rsatilgan turi (nomi)bo'yicha yoziladi)

**Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

1. Zoologiya terminologiyasi
2. O'zbekistonda zoologiya fanining rivojlanishi
3. Ekologik omillarning O'zbekiston hayvonlarining turli hududlarda tarqalishiga ta'siri
4. O'zbekiston faunasida bir hujayralilar xilma-xilligi
5. O'zbekiston faunasida hasharotlar xilma-xilligi
6. O'zbekiston ixtiofaunasidagi osyotrsimonlar va zog'orabaliqsimonlar turkumlariga mansub baliqlar biologiyasi va ekologiyasi
7. O'zbekistonda iqlimlashtirilgan baliq turlari
8. O'zbekiston gerpetofaunasidagi toshbaqalar turkumiga mansub sudralib yuruvchi hayvonlar biologiyasi va ekologiyasi
9. O'zbekiston gerpetofaunasidagi tangachalilar turkumiga mansub sudralib yuruvchi hayvonlar biologiyasi va ekologiyasi
10. O'zbekiston ornitofaunasida suv qushlari xilma-xilligi va noyob turlarini saqlab qolish
11. O'zbekistonda yirtqich qushlar xilma-xilligi va noyob turlarini saqlab qolish
12. O'zbekistonda toq tuyoqlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvonlar biologiyasi va ekologiyasi
13. O'zbekistonda juft tuyoqlilar turkumiga mansub sut emizuvchi hayvonlar biologiyasi va ekologiyasi
14. "O'zbekiston qizil kitobi" ga kiritilgan hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari
15. Surxondaryoning noyob hayvonlari va ularni muhohaza qilish

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalari qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Talaba avvalo bajariladigan amaliy mashg'ulot ishining nazariy va amaliy tomonini qisqacha izohlab beradi va yozma ravishda xulosalar qilinadi. Ushbu xulosalar o'qituvchi tomonidan og'zaki muloqot shaklida tekshiriladi.

#### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. O'zbekiston hayvonot dunyosini o'rghanishga hissa qo'shgan olimlar.
2. Zoologik sistematika printsiplari. Sistematikada qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar
3. Noyob umurtqasiz hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari.
4. Noyob baliqlar va ularni muhofaza qilish masalalari
5. Noyob sudralib yuruvchi hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari.
6. Noyob qushlar va ularni muhofaza qilish masalalari
7. Noyob sut emizuvchi hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalari.
8. O'zbekistonda hayvonlarni saqlash bo'yicha qonun hujjatlari
9. "Qizil kitob" va uning hayvonot dunyosi xilma-xilligini saqlashdagi ahamiyati.
10. Surxondaryoning noyob hayvonlari va ularni muhohaza qilish

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

3

#### V. Ta'lim natijalari / Kasbiy kompetensiyalari

**Talaba bilishi kerak:**

- O'zbekiston hayvonot dunyosi to'g'risida umumiy ma'lumot. O'zbekiston hayvonot dunyosini o'rghanishga hissa qo'shgan olimlar. O'zbekiston zoologiyasi milliy yutuqlari haqida **tasavvurga ega bo'llishi**;
- O'zbekiston hududida yashovchi hayvonlarga sistematik tavsif. Zoologik sistematika printsiplari. Sistematikada qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar, *tekislik* (qumli cho'llar, soz tuproqli cho'llar) hayvonlari, *tog'lar* (chala cho'lli tog' mintaqasi, tog' dashtlari mintaqasi, tog' o'rmonlari mintaqasi, Alp mintaqasi) hayvonlari, *suv havzalari* hayvonlari, *voha* hayvonlari, O'zbekistonda umurtqasiz va umurtqali hayvonlar xilma-xilligi. Sistematikasi. Tabiatdag'i va inson hayotidagi ahamiyati. O'zbekiston hududida tarqalish xususiyatlari. Biologik va ekologik xususiyatlari. Noyob hayvonlar va ularni muhofaza qilish masalalarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;
- O'zbekistonda hayvonlarni saqlash bo'yicha qonun hujjatlari. "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish" to'g'risidagi, "Tabiatni muhofaza qilish" to'g'risidagi qonunlar, Oliy Majlisning "Qimmatbaho va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishni kuchaytirish hamda ulardan

	saqlashdagi ahamiyati kabi ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. (malaka)
4	<p style="text-align: center;"><b>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• ma'ruzalar;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• amaliy mashg'uotlar;</li> <li>• Seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar)</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• taqdimotlami qilish;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.</li> </ul>
5	<p style="text-align: center;"><b>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, amaliy ko'nikmalar natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Богданов О.П. Ўзбекистон ҳайвонлари. Тошкент, "Ўқитувчи", 1983. - 320 б.</li> <li>2. O'zbekiston respublikasi Qizil kitobi. II-tom. Toshkent. 2019. - 710 b.</li> <li>3. Богданов О.П. Редкие животные Узбекистана. Ташкент, 1992. - 370 с.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>4. "Ҳайвонот дунёсини муҳофаза килиш ва ундан фойдаланиш" тўғрисидаги Конун. Тошкент. 2016.</li> <li>5. Шерназаров Э.Ш., Вашетко Э.В. ва бошк. Ўзбекистоннинг умуртқали ҳайвонлари. ЎЗР ФА "Фан" нашриёти, 2006. 172 б.</li> <li>6. Сурхондарёниг ҳайвонот дунёси. Ш.Хуррамов умумий таҳрири остида. Тошкент, 2008. 200 б.</li> <li>7. Бекмуродов А.С. Сурхондарёниг ноёб ҳайвонлари. Тошкент. 2018. - 88 б.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalari</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>8. <a href="http://www.zio.net.uz">www.zio.net.uz</a></li> <li>9. <a href="http://www.natlib.uz">www.natlib.uz</a></li> </ol>

	<p>10. <a href="http://uzspb.uz">http://uzspb.uz</a>      11. <a href="http://zoohistory.ru">http://zoohistory.ru</a>      12. <a href="http://www.ebyo.ru">http://www.ebyo.ru</a>      13. <a href="http://www.ceaworld.org/animal">http://www.ceaworld.org/animal</a>      14. <a href="http://www.zyn.ru">http://www.zyn.ru</a></p>
7	<p><b>O'zbekiston faunasi fanining o'quv dasturi Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.</b></p> <p>O'quv dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2024 yil “<u>26</u>” <u>06</u> dagi “<u>11</u>” -sonli qarori bilan tasdiqlangan.</p>
8	<p><b>Fan / modul uchun mas'ullar:</b></p> <p>B.A.Raxmatullayev <u>РХ</u> TerDU “Zoologiya” kafedrasи mudiri,      biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p> <p>A.S.Bekmurodov <u>АС</u> TerDU “Zoologiya” kafedrasи dotsenti,      biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>
9	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>X. S.Eshova – Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti Zoologiya kafedrasи professori, biologiya fanlari doktori</p> <p>A.U.Mamashukurov – Samarqand davlat universiteti “Zoologiya” kafedrasи dotsenti, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori</p>